

## O'ZBEKISTONDAGI SIYOSIY JARAYONLARDA SIYOSIY ISHTIROKNING AHAMIYATI

**Raximov Diyorxon Rustam O'g'li**

*O'zbekiston Milliy Universiteti "ijtimoiy fanlar fakulteti" 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekistondagi olib borilayotgan siyosiy jarayonlar, ularning mohiyati, maqsadi, bu jarayonlarda demokratiyaning o'rni. Siyosiy ishtirokchilar turlari hamda O'zbekiston miqiyosida siyosiy jarayonlarga xalqimizning munosabatlari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Siyosiy jarayonlar, Siyosiy ishtirok, Siyosiy ishtirokchilar turlari, Siyosiy ishtirok shakllari, Jamiyat siyosiy faolligi.*

Bugungi kundagi xalqimizning davlat siyosatiga va bo'lib o'tayotgan jarayonlariga befarq emasliklari va bu jarayonlarga o'z munosabatlarini bildirishlari ularning siyosiy ishtiroklarida aks etib kelmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Siyosiy ishtirokning faolligini siyosiy jarayonni o'sib, yuksalib borishi belgilab beradi. Siyosiy jarayonning faolligini oshirish bu siyosiy tizimdagi siyosiy institutlar bilan bog'liq. Ko'rib turganimizdek bu jarayonda har bir bosqich zanjir shaklida bir biriga bog'langan. Bu zanjir qachon uzilmasdan ishlasa, siyosiy jarayonlar ham faolligi oshadi. nega aynan siyosiy institutlar ham bu zanjirga qo'shildi degan savol tug'ilishi turgan gap. Buning sababi siyosiy institutlar siyosiy jarayonlarning yetakchi subektlaridan hisoblanadi.

Yuqorida siyosat rivojlanishiga urg'uni bekorga berib o'tmadik. Siyosiy rivojlanish ikki yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin. Bular islohotlar va inqiloblar.

Islohotlar – tizim yangilanishi kechuvchi jarayoni. Bunda siyosiy institutlar va ularning vazifalarini sifat jihatdan o'zgarishini asta-sekinlik bilan amalga oshirishini anglatadi.

Siyosiy inqilob – siyosiy tizimli tubdan o'zgartirishning kuchga tayangan usuli. Bu jarayonni siyosiy islohotlar zaiflashgan paytda inqilob sodir etilishi mumkin.

Siyosiy ishtirok- ijtimoiy- siyosiy jamoa a'zolarining ichki siyosiy munosabatlar va jarayonlardagi faoliyati tushiniladi.

Ko'pchilik fikricha siyosiy ishtirok deganda faqat saylovlarda ishtirok etish tushiniladi. Aslida bu xato fikr hisoblanadi. Siyosiy ishtirok shakllari turlicha :

- Saylov va boshqa siyosiy kompaniyalarda ishtirok;
- Siyosat va davlat arboblari, hamda tashkilotlari bilan muloqot;
- Namoyishlarda, siyosiy ish tashlashlarda, ommaviy norozilik xarakatlarida, ozodlik urushlari va inqiloblarda ishtirok;
- Boshqaruv va o'z – o'zini boshqaruvda ishtirok;
- Qonunlar yaratish, ularni himoya qilish va ularga amal qilishda ishtirok;
- Siyosiy partiya va ijtimoiy – siyosiy xarakatlar faoliyatida ishtirok etish;

- Boshqaruv va o'z – o'zini boshqaruvda ishtirok kabi turlari mavjud.

Siyosiy ishtirok ko'rinishlari va shakllaridagi ishtiroklar uchun eng eng qulay sharoitni demokratik va xuquqiy davlatlar yaratadi.

Hatto Aflotun va Arastu ham demokratik davlatlardagi siyosiy ishtiroklar haqida so'z olib brogan. Yakuniy xulosa qilib Aflotun "Demokratik davlatlarda hatto qobiliyating bo'lsadaboshqaruvda ishtirok etishingni hojati yo'q" deb fikr bildirsa. Arastu esa ikkinchi tomonda "siyosiy ishtirok fuqoroning ajralmas tub bo'lagi" deb fikr yuritadilar.

O'zbekiston Respublikasi demokratik davlat bo'lganligi sababli ham siyosiy jarayonlar vertikal tarzda . Ya'ni hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi muloqot , kelishuv asosida siyosat olib boriladi.

O'z navbatida siyosiy ishtirokchilar haqida gap borganda biz siyosatshunoslar siyosiy ishtirokchilarni quyidagi turlarini sanab o'tamiz.

- Faol ishtirokchilar – o'zi nomzod ko'rsatganlar,davlat organining raxbari hizmatchisi.

- Oraliq ishtirokchilar – rasmiy siyosiy yig'ilishlarda ishtirok etuvchi, homiylik qiluvchi ishtirokchilar.

- Kuzatuvchi ishtirokchilar – siyosiy jarayonlarda shior, logo bilan ishtirok etuvchi va bahs munozaralarga jalb etuvchilar guruhi.

- Befarq ishtirok etuvchilar – bular befarq, loqayd va xohish – istaksizlar guruhi.

Jamiyatimiz ko'pgin asiyosiy institularning evolutsiyasi orqali siyosiy jarayonlarda befarq siyosiy ishtirokchilikdan asta sekin vos kechib bormoqda. Ya'ni ko'pgina siyosiy jarayonlarda faolliklari ortib bormoqdalar. Bu albatta jamiyatimiz uchun manfaat keltiradi.Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki qaysiki jamiyat atrofida bo'layotgan siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishlari , shu jamiyatning o'zi uchungina manfaatli bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <http://uz.wikipedia.org/wiki/siyosiyishtirok>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Siyosiy\\_jarayon](https://uz.wikipedia.org/wiki/Siyosiy_jarayon)
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekistondasiyosiyvaziyat>
4. "Siyosatshunoslikka kirish". O' Biturayev